

**YANGI O'ZBEKISTONDA AYOLLAR FAOLLIGINING OSHISHI
VA IJTIMOIY INSTITUTLARNING RO'LI**

Norimonova Gulmira Ulug'bek qizi

*Andijon davlat pedagogika instituti milliy g'oya,
ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangi O'zbekiston sharoitida ayollar faolligining ortib borishi va bu jarayon orqali ijtimoiy institutlarning, xususan, oila, ta'lif muassasalarini, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyatni institutlari va davlat siyosatining yta'siri ilmiy-falsafiy asosda tahlil qilinadi. Bugungi kunda mamlakatamizda olib borilayotgan demokratik islohotlar, inson huquqlarini ta'minlash va gender tengligini qaror topshirishga qaratilgan tashabbuslarning amaliy natijalari hamda ayollarni ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotda faol ishtirok qilishga qaratilgan. Ayollar faolligining ortishi orqali shaxsiy erkinlik va huquqiy kafolatlar bilan bog'liq bo'lib, balki ijtimoiy muhitning o'zgarishi, madaniy qadriyatlar bilan bevosita bog'liqdir. Maqolada oila, ta'lif, OAV, diniy-ma'rifiy tashkilotlar va davlat boshqaruv tizimining ayollar faolligini rag'batlanirishdagi o'zaro aloqasi ilmiy-falsafiy yondashuv asosida yoritiladi. Bu institutlar orqali gender stereotiplarini yemirish, ijtimoiy ongni o'zgartirish va teng huquqlilik tamoyillarini mustahkamlash imkoniyatlarini ochib beradi. Maqolaning ilmiy ahamiyati shuki, unda gender tengligining faqat huquqiy yoki statistik ko'rsatkichlar darajasida emas, balki ijtimoiy ong, qadriyatlar tizimi va falsafiy tafakkur orqali o'rganiladi.

Аннотация: В статье на научной и философской основе анализируется повышение активности женщин в условиях Нового Узбекистана и влияние на этот процесс социальных институтов, в частности, семьи, образовательных учреждений, средств массовой информации, институтов гражданского общества и государственной политики. Проводимые сегодня в нашей стране демократические реформы являются практическими результатами инициатив, направленных на обеспечение прав человека и гендерного равенства, а также активного участия женщин в социально-экономической, политической и культурной жизни. Повышение активности женщин связано не только с личной свободой и правовыми гарантиями, но и с изменением социальной среды и культурных ценностей. В статье на научной и философской основе рассматривается взаимодействие семьи, образования, средств массовой информации, религиозных и просветительских организаций и системы государственного управления в стимулировании активности женщин. Раскрываются возможности разрушения гендерных стереотипов, изменения общественного сознания и укрепления принципов равенства через эти

институты. Научная значимость статьи заключается в том, что в ней гендерное равенство рассматривается не только на уровне правовых или статистических показателей, но и через общественное сознание, системы ценностей, философское мышление.

Abstract: This article analyzes the increasing activity of women in the conditions of New Uzbekistan and the impact of social institutions, in particular, family, educational institutions, mass media, civil society institutions and state policy on this process on a scientific and philosophical basis. The democratic reforms being carried out in our country today are the practical results of initiatives aimed at ensuring human rights and gender equality, as well as the active participation of women in socio-economic, political and cultural life. The increase in women's activity is associated not only with personal freedom and legal guarantees, but also with changes in the social environment and cultural values. The article examines the interaction of family, education, mass media, religious and educational organizations and the state administration system in stimulating women's activity on a scientific and philosophical basis. It reveals the possibilities of destroying gender stereotypes, changing social consciousness and strengthening the principles of equality through these institutions. The scientific significance of the article is that it examines gender equality not only at the level of legal or statistical indicators, but also through social consciousness, value systems, and philosophical thinking.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, gender tengligi, ayollar faolligi, ijtimoiy institutlar, ijtimoiy-falsafiy tahlil, fuqarolik jamiyat, oila instituti, ta’lim tizimi, ommaviy axborot vositalari, demokratik islohotlar, ijtimoiy ong, oila va jamiyat.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, гендерное равенство, женский активизм, социальные институты, социально-философский анализ, гражданское общество, институт семьи, система образования, средства массовой информации, демократические реформы, общественное сознание, семья и общество.

Keywords: New Uzbekistan, gender equality, women's activism, social institutions, socio-philosophical analysis, civil society, family institution, education system, mass media, democratic reforms, social consciousness, family and society.

Kirish: Bugungi XXI asr- ijtimoiy taraqqiyot, inson huquqlari va gender tenglikka intilish davri sifatida dunyo miqyosida tan olinmoqda. Bu jarayonda O‘zbekistonda ham yangilanish va modernizatsiya bosqichiga kirib, “Yangi O‘zbekiston” tamoyillari asosida chuqur ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirib kelmoqda. Mustqaillikdan so‘ng O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sohalarda keng ko‘lamli islohotlar bosqichiga qadam qo‘yadi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi olib borilayotgan isohotlar orqali

ayollarning jamiyatdagi o‘rni va faolligini oshirish va ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, shu bilan birga, ijtimoiy hayotdagi ishtirokini kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoxda. Bu jarayonda fuqarolik jamiyatining shakllanishi, demokratik institutlarning faoliyati va ijtimoiy institutlar faoliyat yuritmoqda. O‘zbek jamiyatining tarixiy-madaniyatida ayol shaxsiga nisbatan yondashuvda an’naviy va zamonaviy qadriyatlar o‘zaro uyg‘unlashib borayotgan bir davrda, ayollar faolligining ortib borishi davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining strategik hamkorligini ko‘rsatadi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Ayollar va gender tengligi masalalari bo‘yicha komissiya, Xotin-qizlar qo‘mitasi, fuqarolik jamiyatining nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va ta’lim muassasalari bu yo‘nalishlarda muhim ijtimoiy institutlar sifatida faoliyat yuritib kelmoqda. So‘nggi yillarda gender tengligini ta’minalash, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish va ularning siyosiy qaror qabul qilish jarayonlaridagi ishtirokini kuchaytirish bo‘yicha ko‘plab o‘zgarishlar yuz bermoqda. Jumladan, parlament va mahalliy kengashlardagi ayollar sonining oshishi va ularning ijtimoiy tashabbuslari hamda yetakchilik faoliyatidagi faolligi bilan birga, amaliy natijalarda ham o‘z kasbini topadi. Mening fikrimcha, Yangi O‘zbekiston sharoitida ayollar faolligining oshishi nafaqat individual muvafaqqiyat ko‘rinishida, balki umumjamiyat taraqqiyotining muhim ko‘rsatkichi sifatida e’tirof qilinishi kerak bo‘ladi.

Metod: Ushbu tadqiqot davomida quyidagi ilmiy metodlardan foydalilaniladi:

1. Tarixiy-taqqoslama metodi-Ayollar faolligining tarixiy davrlarda o‘zgarishlarini aniqlash va Yangi O‘zbekiston davriga xos xususiyatlarni ilgari aniqlangan davrlar bilan taqqoslab tahlil qilish maqsadida qo‘llaniladi. Bu metod orqali ayollarning jamiyatdagi o‘rni qanday bosqichlardan o‘tganini aniqlash imkoniyatini beradi.

2. Sotsiologik so‘rovnama va intervyu-Ushbu tadqiqotda ayollar faolligining real holatini baholash uchun sotsiologik so‘rovnama usulidan foydalilaniladi. So‘ravnomalar va intervyu usullari orqali ayollar faolligining omillari va to‘sqliari aniqlanadi.

3. Tahlil metodi-O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, hukumat tomonidan qabul qilingan qarorlar, ayollarni qo‘llab-quvvatlashga doir darturlar, mahalla institutlariga oid hujjalalar tahlil qilinadi.

4. Tizimli yondashuv-Ijtimoiy institutlar faoliyatini kompleks tizim sifatida o‘rganib, ularning ayollar faolligiga ta’sirini o‘rganadi. Bular orqali ayollarni ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy hayotga jalb qilishda turli xil institutlar o‘rtasida bo‘ladigan aloqani tahlil qiladi.

5. Empirik tadqiqot usuli-bunda ,asosan, O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Oila va xotin-qizlar

qo‘mitasi tomonidan taqdim qilingan statistik ma’lumotlar orqali ayollarning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy faoliyat darajasi ko‘rsatkichlari tahlil qilinadi.

6. Normativ-huquqiy tahlil- So‘nggi yillarda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, masalan, Prezident qarorlari va farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Oliy Majlis qonunlari orqali ayollarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlarini tahlil qilishdan iborat bo‘ladi.

Ushbu tadqiqotlarning asosiy obyekti sifatida Yangi O‘zbekiston sharoitida faoliyat yuritayotgan ijtimoiy institutlar, masalan, mahalla, nodavlat notijorat tashilotlari, davlat organlari va ommaviy axborot vositalari faoliyatidir. Tadqiqotning subyektlari esa bu institutlar bilan bevosita aloqada bo‘lgan va ularni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlaridan foydalanuvchi ayollarning qatlagini tasgikil qiladi.

Natijalar: Bugungi Yangi O‘zbekiston sharoitida ayollarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotidagi faolligining ortib borishi bilan davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Ijtimoiy institutlarning-davlat idoralari, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyati orqali ayollar faolligining oshib borishida muhim ahamiyat kasb qiladi. Misol uchun:

1. Davlat siyosati va qonunchilik bazasi mustahkamlab borilmoqda. Masalan, “Gender tengligi to‘g‘risida”gi Qonun, “Ayollarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi” singari tashabbuslar ayollar salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun huquqiy va moddiy asos bo‘lmoqda. Bular orqali ayollarni tadbirkorlik, ta’lim sohasida, sog‘liqni saqlash va siyosat sohalarida faol ishtirok qilishiga asos yaratmoqda.

2. O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi va unga qarashli tuzilmalarning faollashuvi orqali joylarda ayollarning siyosiy va iqtisodiy faolligini oshirishga qaratilgan loyihalar amalga oshirilib kelinmoqda. Bularning natijasida bugungi kunda ayollarning saylovlarda ishtirok qilishi ortganligi va ularning xalq deputatlari kengashlariga saylanish ko‘rsatkichlari oshganini ko‘rshimiz mumkin bo‘ladi.

3. Ta’lim va axborot texnologiyalari sohasida gender tengligini ta’minalash yo‘lida katta qadamlar tashlanmoqda. Masalan, ayollar orasida oliy ta’limga qamrov darajasi yildan-yilga oshib bormoqda va STEM yo‘nalishlarida o‘qiyotgan talabalar orasida ayollarni o‘rni oshyotganini ko‘rshimiz mumkin.

4. Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali gender streotipleriga qarshi kurashish natijasida, ayollar muvvafaqiyati haqidagi ijobjiy obrazlarni ilgari surish orqaligina ijtimoiy ongda o‘zgarishlar yuzaga kelmoqda. Media sohasida ham faol ayollar timsoli jamiyatda ayollarning faolligini rag‘batlantiruvchi omil bo‘lmoqda.

Bugungi kunda o‘tkazilayotgan ijtimoiy so‘rovlari natijasida ayollarning o‘z

huquq va imkoniyatlaridan xabardorliklari ko‘zni quvnatadi, albatta. Bu esa jamiyatimizda gender tengligining qaror topishiga qaratilgan siyosiy va ijtimoiy institutlar faoliyatining samarasi hisoblanadi.

Tahlil: Bugungi Yangi O‘zbekiston sharoitida ayollarni faolligining oshishi ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy sohalarda amalga oshirilib kelinyotgan islohotlarning natijasida yuzaga kelmoqda. Misol uchun, davlat siyosatida gender tengligini ta’minlash, ayollarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish va ularni jamiyatimiz hayotida faol ishtirok qilishiga undovchi ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. So‘nggi yillarda ko‘rishimiz mumkinki, davlat siyosatida gender tengligini ta’minlash, ayollarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish hamda ularni jamiyat hayotida faol ishtirok qilishga undash ustuvor yo‘nalishlardan biri ekanligini ko‘ramiz. Misol uchun, 2019-yilda tashkil qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ayollarni qo‘llab-quvvatlash va gender tenglikni ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi” instituti ayollar huquqlarini tizimli ravishda himoya qilib borishda muhim o‘ringa ega hisoblanadi. Bundan tashqari, ijtimoiy institutlar-“Ayollar daftari”, “Temir daftar” va “Yoshlar daftari” mexanizmlari orqali ehtiyojmand va ijtimoiy zaif qatlamga mansub ayollarni qo‘llab-quvvatlash va ularning bandligini ta’minlash, kasb-hunar o‘rganishlariga ko‘maklashish orqali ularning ijtimoiy faolligini oshirishda samarali natijalarga erishib kelinmoqda. Bu singari yondashuvlar orqali ayollarni iqtisodiy faol qilib, balki ularni ijtimoiy hayotning turli sohalariga jalb qilish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, ta’lim tizimida bugungi kunda qizlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar-oliy ta’limga kirishda kvotalar, stipendiyalar, chekka hududlardan chiqayotgan iqtidorli qizlarni rag‘batlantirish siyosati orqali ayollarning ilmiy va kasbiy jihatdan faol bo‘lishga imkoniyatlar yaratmoqda. Jumladan, tibbiy xizmatlarning sifati va qamrovi oshganligi tufayli ayollarning salomatligi mustahkamlanib, ularning iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok qilishi kun sayin kengayib bormoqda.

Mening fikrimcha, bugungi kunda ko‘plab faol ayollarimiz blogerlik, onlayn tadbirkorlik, masofaviy ta’lim va maslahat xizmatlari orqali o‘z imkoniyatlarini kengaytirib va oshirib bormoqda. Yana bir muhim jihatlaridan biri shundaki, O‘zbekistondan gender tengligini ta’minlash bo‘yicha milliy strategiyalar, qonunchilik bazasi va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi natijasida olib borilayotgan ishlar tufayli ayollar faolligini tizimli ravishda va uzoq muddatli istiqbolda qo‘llab-quvvatlashga xizmat qilib kelmoqda. Masalan, 2022-2030-yillarga mo‘ljallangan Gender tenglikni ta’minlash strategiyasi asosida belgilangan maqsadlar doirasida barcha sohalarda ayollarning huquq va imkoniyatarini tengligiga erishish uchun kompleks chora-tadbirlar ko‘rib chiqilmoqda.

Xulosa: Mening fikrimcha, Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida, ayollarning jamiyatimizdagi faolligi sezirarli darajada ortib

bormoqda. Bu kabi jarayonda ijtimoiy institutlarning, xususan, davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalarining o‘rni juda ham katta deb o‘ylayman. Bugungi kunda ayollarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar va ularning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotidagi ishtirokini kengaytirishga xizmat qilib kelmoqda. Shu bilan birga, gender tengligi tamoyillarini mustahkamlash yo‘lida olib borilayotgan siyosatlar ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotning muhim omiliga aylanib ulgurgan deya bemalol aytal olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov I.A.“Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch”.-T.:Ma’naviyat,2008;
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-T.:“O‘zbekiston”,2022;
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 7-martdagи Farmoni “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va ularning jamiyatdagi o‘rnini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” :
4. Xoliqova N.,Jo‘rayevna M. “Ayollarning ijtimoiy faolligini oshirishda davlat siyosatining ahamiyati”,2023;
5. Tursunova D.S.“O‘zbekistonda gender siyosati va uning rivojlanish bosqichlari”. Ilm-fan va innovatsiyalar,2022;
6. <https://innoist.uz>
7. <https://gov.uz>.